O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

Qo'lyozma huquqida
UDK 511.28

ABDUSAMATOVA HILOLA

TUB SONLAR QATNASHGAN BINAR ADDITIV MASALANING YECHIMLARI SONI HAQIDA

5A130101- Matematika ta'lim yo'nalishi bo'yicha
Magistr
akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:

fizika-matematika fanlari doktori I.Allakov

Termiz- 2017

MUNDARIJA

KIRISH

***a*). Mavzuning o'rganilganlik darajasi va dolzarbligi.** Yurtimiz istiqlolga erishgan ilk kunlardanoq, davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari Vatanimiz mustaqilligi va ozodligi tufaylidir. Respublikamizda izchil suratda amalga oshirilib borilayotgan "Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi" bugungi kunda jahon miqyosida e'tirof etildi va o'zining ijobiy natijalarini bermoqda.

O'zbekistonda ta'lim tizimini isloh qilishning dasturiy hujjatlarida [1,2] ta'kidlanganidek, mamlakatimiz ta'lim tizimi xodimlari oldiga raqobatbardosh kadrlar tayorlash, ta'l im tarbiya jarayonini jahon andozalari darajasiga etkazishni ta'minlash asosiy vazifa qilib qo'yilgan. Shu ma'noda olib qaraganda, yoshlarning yangi avlodi istiqbol masalalarini kun tartibiga dadil qoyadigan va uni yecha oladigan, fikr yuritishning yuksak madaniyatini egallagan, siyosiy hamda ijtimoiy-iqtisodiy hayotda o'ziga mustaqil yo'l topa oladigan qobiliyatga ega bo'lishi kerak.

Zero birinchi Prezidentimiz [3] ta'kidlaganlaridek: ―"Buyuk maqsadlarimizga, ezgu-niyatlarimizga erishishimiz, jamiyatimizning yangilanishi, hayotimiz taraqqiyoti va istiqboli, amalga oshirilayotgan islohatlarimiz va rejalarimizning samarali taqdiri, avvalambor davr talablariga javob beradigan yuqori malakali, ongli taffakurga ega bo'lgan mutaxassis kadrlar bilan bog'liq...".

Ushbu magistrlik dissertatsiyasi mavzusi ana shu talab va vazifalardan kelib chiqib tanlandi.

X.Goldbax va L.Eyler orasidagi 1742 yildagi yozishmalardan Eyler-Goldbax muammosi vujudga kelgan.U zamonaviy tilda quyidagicha ifodalanadi [4]:

I. Har qanday toq natural $n \geq 9$ sonni uchta toq tub sonlarning yig'indisi ko'rinishida yozish mumkin;

II.Har qanday juft natural $n \geq 6$ sonni ikkita toq tub sonlarning yig'indisi ko'rinishida yozish mumkin.

Bu tasdiqlarning birinchisiga Goldbaxning ternar problemasi, ikkinchisiga esa Goldbaxning binar problemasi ham deb yuritiladi.

I.M. Vinogradov [5] o’zi yaratgan trigonometrik yig’indilar metodi yordamida ternar problemani 1937 yilda yetarlicha katta $n \geq N_0$ lar uchun hal qildi. Bu problema yaqinda [6] to’la hal bo’ldi, ya’ni barcha $n \geq 9$ lar uchun isbotlandi.

Lekin binar problema hosirgacha t’ola hal etilgan emas. Bu sohada N.G.Chudakov [7], Van-der-Corput [8] va T. Esterman [9] lar Vinogradovning trigonometrik yig’indilar metodini qo’llab deyarli barcha juft sonlarning ikkita toq tub sonning yig’indisi ko’rinishida ifodalanishini ko’satdilar. Aniqroq qilib aytganda agar $E(X)$ bilan $[2, X)$ oraliqdagi ikkita tub son yig’indisi ko’rinishida ifodalanmaydigan juft sonlarning sonini belgilasak, yuqoridagi mualliflar belgilangan $A > 0$ soni uchun

$$E(X) \ll \frac{X}{ln^A x}$$

bahoning o’rinli ekanligini isbotladilar.

Keyinchalik bu natija bir necha marta yaxshilandi. Jumladan Montgomery H.L., Vaughan R.C. [10,11], I.Allakov [12], Chen J., Pan C.[13] lar tomonidan $E(X) < Xexp\left(-c\sqrt{lnX}\right)$, $E(X) < X^{1-\delta}$, $E(X) < X^{0,96}$ baholar olingan bo’lsada, muammo to’la hal etilgani yo’q.

Qaralayotgan problema yechimini topmagani uchun ham bu sohadagi har bir ilmiy izlanish soha uchun dolzarb hisoblanadi.

***b*). Ishning maqsadi**. Magistrlik dissertatsiyasining asosiy maqsadi $(1, X)$ oraliqdagi ikkita tub sonlarning yig’indisi

$$n = p_1 + p_2 \qquad (0.1)$$

ko’rinishida ifodalanadigan juft $n-$natural sonlar to’plamini o’rganib (0.1) ning tub sonlardagi yechimlari soni $R(n)$ uchun yangi baho olishdan iboratdir.

Ishning asosiy natijalari. Dissertatsiyaning asosiy ilmiy natijasi quyidagi:

1.Agar Dirixle $L-$ funktsiyasining maxsus haqiqiy no’li mavjud bo’lmasa yoki shunday maxsus haqiqiy no’li $\tilde{\beta}$ mavjud bo′lib, $(n, \tilde{r}) = 1$ bo’lsa, u holda X ning yetarlicha katta qiymatlarida $n, (n \leq X)$ning ko′pi bilan

$$E(X) < X^{0,9882}$$

tadan boshqa barcha qiymatlari uchun

$$R(n) > n^{0,991673}\left(0,0007262\cdot\frac{n^{1,008326}}{\varphi(n)} - 1\right) \qquad (0.2)$$

tengsizlik; qolgan qiymatlari uchun esa

$$R(n) \le n^{0,991673}\left(0,0007262\cdot\frac{n^{1,008326}}{\varphi(n)} - 1\right)$$

tengsizlik o'rinli.

2. Ishda Rimanning dzeta-funktsiyasi $\zeta(s), (s=\sigma+it)$ ning $0<\sigma<1$, $|t|\le T$ to'g'ri to'rtburchakdagi trivial bo'lmagan no'llarining soni *N(T)* uchun

$$N(T) = \frac{T}{2\pi}ln\frac{T}{2\pi} - \frac{T}{2\pi} + 6,512850\theta\ lnT \qquad (0.3)$$

formula isbotlangan.

Bu natija ilgari $N(T)$ bilan bog'liq mavjud natijalarning aniqlashtirilgani hisoblanadi. Taqqoslash uchun ilgarigi natija I. Allakov [14] tomonidan oligan bo'lib

$$N(T) = \frac{T}{2\pi}ln\frac{T}{2\pi} - \frac{T}{2\pi} + 32,22660\theta\ lnT$$

ko'rinishda edi.

Dissertatsiya ishining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiyaning mavzusi Termiz davlat universiteti ilmiy kengashi tomonidan tasdiqlangan va Termiz davlat universiteti matematika kafedrasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari bilan bevosita bog'liq.

Ishning nazariy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiya ishi ilmiy-nazariy xarakterda bo'lib, matematikaning turli additiv masalalarini yechishda, xususan, qo'shiluvchilar soni chegaralangan bo'lgandagi Varing muammosini, Goldbax muammosini, Xardi-Littlvud muammosini, Xua-Lo-Ken muammosini hamda ularning umumlashmalarini yechishda foydalanish mumkin.

Natijalarning qo'llanishi. Dissertatsiya natijalaridan O'z RFA ning Matematika instituti va Qarshi va Termiz davlat universitetlarida ilmiy izlanishlar olib borayotgan mutaxassislar foydalanishlari mumkin. Shuningdek ishdan shu sohada ilmiy izlanishlar olib boruvchi mutaxassislar foydalanishlari hamda talabalarga maxsus kurs va seminarlar o'tishda foydalanish mumkin.

Ishning sinovdan o'tishi. Ishning asosiy natijalari " OTM larida tabiiy va aniq fanlarni o'qitish muammolari " respublika konferensiyasida (mart, 2017, Toshkent), shuningdek Termiz davlat universitetining yillik ilmiy konferensiyalarida (2016, 2017 yillar), Termiz davlat universiteti matematika kafedrasi seminarlarida ma'ruza qilinib muhokama etilgan.

Natijalarning e'lon qilinganligi. Ish yuzasidan 3ta maqola chop etildi [32-34].

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Magistrlik dissertatsiyasi kirish, uch bob, xulosalar va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat, umumiy hajmi kompyuter yozuvida 80 bet.

Dissertatsiyaning asosiy mazmuni

I-bob "Asosiy tushunchalar va yordamchi materiallar" –deb nomlangan bo'lib 3 ta paragrafdan iborat.

I.1-§ da Goldbaxning ternar problemasi (yuqoridagi I-tasdiq) va uning isboti haqhidagi materiallar bayon qilingan.

I.2-§da Goldbaxning binar problemasi (yuqoridagi II-tasdiq) va bu borada olingan keyingi natijalar o'rganilgan.

I.3- §. Binar additiv masalalarning maxsus t'oplami nima va uni qanday baholash haqida natijalar keltirilgan.

Ishning II-bobi "Dirixle L-fuksiyasining nollari haqida"—deb atalgan va 4ta paragrafni o'z ichiga oladi.

II.1- § da *L*-funksiyaning logarifmik yoyilmasini no'llari bo'yicha qatorga yoyish masalasi qaralgan.

II.2- § da $N(T,\chi)$ funksiya uchun formulaning qoldiq hadiga kiruvchi o’zgarmasning qiymati aniqlandan. Shu paragrafda $N(T,\chi_0) = N(T)$ ning qoldiq hadi uchun yangi baho (0.3) isbotlangan. Bunda χ_0 −bosh xarakter.

II.3- § da $\psi(x,\chi)$ funksiya uchun formulaning qoldiq hadiga kiruvchi o’zgarmasning qiymati aniqlandan. Bunda χ −Dirixle xarakteri.

II.4 -§ da zichlik teoremalari va ularning tub sonlar bo’yicha olingan

$$\sum_{p \leq x} \chi(p) lnp$$

yig’indini baholashda qo’llanishi bayon qilingan. P.X. Gallagher [15] teoremasi isbotlangan.

Ishning III-bobi “Sonlarni ikkita toq tub sonlarning yig’indisi ko’rinishida ifodalash”− deb nomlangan. Bu bobda yuqoridagi 2 ta bobning natijalaridan foydalanib ishning asosiy natijasi (0.2) isbotlangan.

III-bob 5 ta paragrafga bo’lingan.

III.1 -§ da asosiy belgilashlar va doiraviy metodni qo’llash uchun mos holda birlik intervalni kichik va katta yoylarga bo’lish raqalgan.

III.2- § da trigonometrik yig’indilar metodidan foydalanib kichik yoylar bo’yicha olingan integral, ya’ni qoldiq had baholangan.

III.3- § da katta yoylar qaralgan va Xardi-Litlvud-Ramanudjanning doiraviy metodi bilan katta yoylar bo’yicha olingan integrallar R_1 (L-funksiyaning maxsus no’li mavjud bo’lmasa) va $\tilde{R}_1$ (L-funksiyaning maxsus no’li mavjud bo’lsa) lar soddalashtirilgan.

III.4-§ da R_1 va $\tilde{R}_1$ integrallar baholangan.

III.5- § da asosiy teoremaning isboti, ya’ni (0.2) –natija isbotlangan.

ASOSIY QISM

I-BOB. ASOSIY TUSHUNCHALAR VA YORDAMCHI MATERIALLAR

I.1§. Goldbaxning ternar problemasi va uning isboti haqida

X.Goldbax va L.Eyler orasidagi 1742 yildagi yozishmalardan Eyler-Goldbax muammosi vujudga kelgan. U zamonaviy tilda quyidagicha ifodalanadi [4]:

I. Har qanday toq natural $n \geq 9$ sonni uchta toq tub sonlarning yig'indisi ko'rinishida yozish mumkin;

II.Har qanday juft natural $n \geq 6$ sonni ikkita toq tub sonlarning yig'indisi ko'rinishida yozish mumkin.

Bu tasdiqlarning birinchisiga Goldbaxning ternar problemasi, ikkinchisiga esa Goldbaxning binar problemasi ham deb yuritiladi.

Tushunarliki, Goldbaxning binar problemasining o'rinli ekanligidan ternar problemanig o'rinli ekanligi kelib chiqadi. Haqiqatan ham, $2n = p_1 + p_2$ bo'lsa, u holda $2n + 3 = p_1 + p_2 + 3$, tenglik barcha $n = 3,4, \ldots$ lar uchun bajariladi.

Bu muamolar o'z vaqtida matematikaning juda ham qiyin problemalardan hisoblangan. 1912 yilgacha Goldbax problemasini hozirgi zamon matematikasi metodlari bilan yechib bo'lmaydi degan fikr mavjud bo'lgan.

Faqat 1919 yilga kelib V.Brun mohiyati jihatidan Eratosfen g'alvirining takomillashtirilgani bo'lgan metodni ishlab chiqdi. U o'z metodi yordamida har qanday yetarlicha katta natural sonni har biri 9 tadan ortiq bo'lmagan tub sonlar ko'paytmasidan iborat bo'lgan ikkita qo'shiluvchining yig'indisi ko'rinishida ifodalash mumkin ekanligini ko'rsatdi.

Keyinchalik B. Brun natijasi bir necha bor yaxhilandi, lekin Goldbax problemasini bu metod bilan yechib bo'lmadi. Shunga qaramasdan B. Brun metodi, keyinchalik esa uning turli shakl o'zgartirilgan variantlari: A. Selberg g'alviri, Yu.Linnikning katta g'alvirlari tub sonlar taqsimoti nazariyasida tadbiq etilib, bu sohada salmoqli natijalar olish imkonini berdi.

Ingliz matematiklari G.Xardi va Dj. Littlvud (Hardy G.H., Littlewood J.E.) lar 1924 yilda Goldbaxning ternar problemaga doiraviy usulni qo'llab, hozircha isbotlanmagan Dirixle $L-$ funksiyaning no'llari haqidagi Rimanning umumlashgan gipotezasini(URG) (unga ko'ra Dirixle $L-$ funksiyasi

$$L(s,\chi)=\sum_{n=1}^{\infty}\frac{\chi(n)}{n^s},\quad Res=\sigma>1,\qquad (s=\sigma+it)$$

(bunda $\chi(n)$ $-$Dirixle xarakteri) ning barcha trivilal bo'lmagan no'llari $\sigma=\frac{1}{2}$ to'g'ri chiziqda yotadi) o'rinli deb qarab yetarlicha katta n toq sonining uchta tub son yig'indisi $n=p_1+p_2+p_3$ ko'rinishda ifodalashlar soni $\mathcal{R}\,(n)$ uchun asimptotik formula oladilar.

I.M. Vinogradov [5,16] o'zi yaratgan trigonometrik yig'indilar metodi yordamida 1937 yilda yetarlicha katta $n\geq N_0$ lar uchun bu masalani hal qildi. 1956 yilda K.G.Borozdkin bunda $N_0\leq expexpexp(41{,}96)$ bo'lishi kerak ekanlini ko'psatdi. Keyinchalik bu natija Chen Jing ren va A.Qosimovlar tomonidan bir necha bor yaxshilandi.

$(1,N_1)$ oraliqdagi toq sonlar uchun Goldbaxning ternar problemasining o'rinli ekanligi kompyuterlar yordamida tekshirib ko'rilgan. Shuning uchun ham faqat $(N_1,N_0)-$ oraliqda problemaning o'rinli ekanligini isbotlash qoldi. Bu sohadgi oxirgi natija J. –M.Deshouillers, G. Effinger, H.Te Riele va D. Zinoviev [6] larga tegishli. Ular agar URG o'rinli bo'lsa, ternar problemaning barcha toq $n\geq 6$ lar uchun o'rinli ekanligini ko'rsatdilar. Lekin URG esa hozircha to'la isbotlamagan.

Endi Xardi - Littlvud va I.M. Vinogradov metodlarining mohiyatiga to'xtalib o'tamiz.

Avvalo, *Xardi - Littlvud metodi* haqida. Bu metodning mohiyati quyidagidan iborat: faraz etaylik $A = \{a_m\}$ – manfiy bo'lmagan butun sonlarning qat'iy o'suvchi ketma-ketligi bo'lsin. Ushbu

$$F(z) = \sum_{m=1}^{\infty} z^{a_m}, \quad (|z|<1)$$

funksiyani qaraymiz. U holda uning s – darajasi

$$F^s(z) = \sum_{m_1=1}^{\infty} \dots \sum_{m_s=1}^{\infty} z^{a_{m_1}+\dots+a_{m_s}} = \sum_{n=0}^{\infty} R_s(n) z^n,$$

dan iborat bo'ladi. Bunda $R_s(n)$ bilan n sonining A dan olingan s ta hadning yig'indisi ko'rinishda ifodalashlar soni belgilangan. Masala hech bo'lmasa n ning katta qiymatlarida $R_s(n)$ ni baholashdan iborat.

Koshining integral formulasiga ko'ra

$$R_s(n) = \frac{1}{2\pi i} \int_{|z|=\rho} F^s(z) z^{-n-1} dz,$$

bunda $0<\rho<1$.

Xardi–Littlvud–Ramanudjan (X-L-R) metodi bo'yicha $R_s(n)$ ikkita I_1 va I_2 qo'shiluvchilarga ajratiladi. $R_s(n)$ uchun asimptotik formulada birinchi qo'shiluvchi I_1 bosh hadni, ikkinchi qo'shiluvchi I_2 esa qoldiq hadni beradi. Shunday qilib X–L–R ning doiraviy usuli, bu $R_s(n)$ dan taxmin qilinayotgan bosh hadni ajratish usulidir.

Endi I.M. Vinogradov metodining mohiyatiga to'xtalib o'tamiz.

Bu metodning mohiyati quyidagidan iborat: avvalo X–L–R metodidagi integral tagidagi funksiyani (cheksiz qatorni) chekli trigonometrik yig'indi bilan almashtirdi. Keyin I_1 ni X−L−R metodi bo'yicha tekshiradi, I_2 esa I.M. Vinogradovning trigonometrik yig'indilar metodi [5,16] bilan baholanadi.

I.M. Vinogradov metodi Goldbaxning ternar problemasini isbotlash va Varing problemasidagi qoldiq hadni yaxshilash imkonini beribgina qolmay, balki hozirgacha qiyin hisoblanib kelingan kasr qismlarining taqsimlanishi, kvadratik chegirmalarning soni singari ko'pchilik masalalarda ham muhim natijalar olish imkonini berdi.

I.2§. Goldbaxning binar problemasi va bu borada olingan keyingi natijalar.

Ikkita tub son yig'indisi haqidagi problemani esa Rimanning umumlashgan gipotezasiga tayanib ham hal etib bo'lmadi. G.Xardi va Dj. Littlvudlar faqatgina "deyarli barcha" juft sonlarning ikkita tub son yig'indisi ko'rinishida ifodalanishinigina ko'rsata oldilar xolos, ya'ni agar $E(X)$ bilan X dan katta bo'lmagan va ikkita tub son yig'indisi ko'rinishida ifodalanmaydigan deb gumon qilingan juft sonlar sonini belgilasak

$$\lim_{X\to\infty}\frac{E(X)}{X}=0$$

ekanligini isbotladilar.

1930 yilda L.G.Shnirelman sonlar nazariyasining additiv masalalarini yechish uchun yangi metodni taklif etdi. U o'zi taklif etgan metod bilan shunday bir r absolyut doimiysi mavjudki, har bir n natural sonini r tadan ortiq bo'lmagan tub sonlar yig'indisi ko'rinishida ifodalash mumkin ekanligini ko'rsatdi. Lekinda L.G.Shnirelman isbotidagi r soni ancha katta bo'lib chiqdi ($r \le 8\cdot 10^5$).

Keyinchalik r ning qiymati ketma-ket bir necha bor N.P.Romanov, X.Xeylbron, E.Landau, Sherka, D.Richchi, X.Shapiro, J.Varga, In Ven-Linya, N.I.Klimov, R.Von va boshqa matematiklar tomonidan yaxshilandi.

A.F.Lavrik faqatgina L.G.Shnirelman metodidan foydalanib $r = 8$ dan yaxshi natija olish mumkin emasligini ko'rsatdi. Shuning uchun ham ko'pchilik mualiflar o'z izlanishlarida L.G.Shnirelman metodining boshqa metodlar bilan kombinatsiyasidan foydalanganini aytib o'tish joizdir.

Lekin binar problema hosirgacha t'ola hal etilgan emas. Bu sohada N.G.Chudakov [7], T. Esterman [8] va Van-der-Corput [9] lar Vinogradovning trigonometrik yig'indilar metodini qo'llab deyarli barcha juft sonlarning ikkita toq tub sonning yig'indisi ko'rinishida ifodalanishini ko'satdilar. Aniqroq qilib aytganda agar $E(X)$ bilan $[2, X)$ oraliqdagi ikkita tub son yig'indisi ko'rinishida ifodalanmaydigan juft sonlarning sonini belgilasak, yuqoridagi mualliflar belgilangan $A > 0$ soni uchun

$$E(X) \ll \frac{X}{ln^A x}$$

bahoning o'rinli ekanligini isbotladilar. Bu natija boshqa metod bilan Yu.Linnik [17] tomonidan ham isbot qilingan.

A.F.Lavrik [18] n juft sonining ikkita tub son yig'indisi ko'rinishida ifodalashlar soni, ya'ni

$$n = p_1 + p_2 \qquad (0.1)$$

tenglamaning tub sonlardagi yechimlari soni $\mathcal{R}\,(n)$ uchun asimptotik formula oladi. Bu formula $(1, X)$ oraliqdagi n ning ko'pi bilan

$$\ll \frac{X}{ln^A x}$$

ta qiymatidan boshqa barcha qiymatlari uchun o'rinli.

Keyinchalik $E(X)$ ning yuqoridagi baholari bir necha bor yaxshilandi. Jumladan R.C.Vaughan [10]

$$E(X) < Xexp\left(-c\sqrt{lnX}\right), \qquad (0.2)$$

R.C. Vaughan va H.L.Montgomerylar [11]

$$E(X) < X^{1-\delta}, \tag{0.3}$$

bunda δ, $0 < \delta < 1$ shartni qanoatlantiruvchi effektiv konstanta. R.C. Vaughan va H.L. Montgomerylar [11] da, agar URG o'rinli bo'lsa, $\delta = \frac{1}{2} + \varepsilon$ deb olish mumkin ekaligini aytib o'tganlar. Bu yerda $\varepsilon > 0$ yetarlicha kichik o'zgarmas son. I.Allakov [12], J.Chen, C.Pan [13] lar tomonidan δ ning qiymati aniqlashtirilib yetarlicha katta X lar uchun

$$E(X) < X^{0,96}$$

baholar olingan.

Faraz etaylik χ - q ($q \le T$) moduli bo'yicha Dirixle xarakteri bo'lsin. Ma'lumki ([19], IX-bob, §2), shunday bir o'zgarmas c_1 soni mavjudki Dirixle L – funksiyasi $L(s,\chi)$, $(s = \sigma + it)$

$$\sigma > 1 - \frac{c_1}{\ln T}, \qquad |t| \le T$$

sohada faqat birta primitiv haqiqiy xarakter $\tilde{\chi}(\mathrm{mod}\,\tilde{r})\,(\tilde{r} \le T)$ uchun $\tilde{\delta} = 1 - \tilde{\beta}$ haqiqiy no'lga ega bo'lishi mumkin. Agar shu shartni qanoatlantiruvchi no'l $\tilde{\beta}$ mavjud bo'lsa, u

$$\frac{c_2}{\tilde{r}^{1/2}\ln^2\tilde{r}} \le 1 - \tilde{\beta} \le \frac{c_1}{\ln T}$$

tengsizlikni qanoatlantiradi. Bu no'l $\tilde{\beta}$ ni L – funksiyaning maxsus no'li deb ataymiz.

I.Allakov [20] da n juft sonining ikkita tub son yig'indisi ko'rinishida ifodalashlar soni, $\mathcal{R}\,(n)$ uchun asimptotik formula oldi. Bu formula $(1, X)$ oraliqdagi n ning ko'pi bilan

$$E(X) < Xexp\left(-c\sqrt{lnX}\right)$$

ta qiymatidan boshqa barcha qiymatlari uchun o'rinli. Lekin u Dirixle $L-$ funksiyasining yuqorida ko'rsatilgan maxsus noli mavjud bo'lsa, bu asimptotik formulada tartibi bosh hadning tartibi bilan bir xil bo'lgan had ham ishtirok etadi. Shuning uchun ham I.Allakov tomonidan [20] da isbotlangan formulalar Dirixle $L-$ funksiyasining maxsus no'li mavjud bo'lmagan holda oqatdagidek asimptotik formula bo'lsada shunday no'l mavjud bo'lgan holda oqatdagidan boshqacharoq formulani ifodalaydi. Ya'ni bu holda $\mathcal{R}\,(n)$ uchun quyidan baho olingan.

[21] da I.Allakov n juft sonining ikkita tub son yig'indisi ko'rinishida ifodalashlar soni, $\mathcal{R}\,(n)$ uchun quyidan baho olgan. Bu baho $(1,X)$ oraliqdagi n ning ko'pi bilan

$$E(X) < X^{0.96}$$

ta qiymatidan boshqa barcha qiymatlari uchun o'rinli.

I.3 §. Binar additiv masalalarning maxsus t'oplami va uni baholash haqida.

Sonlar nazariyasining tub sonlar ishtirok etgan binar masalalari:

a). G.Xardi va Dj. Littlvud masalasi "Har qanday natural n sonini tub son p va natural sonning darajasi m^k yig'indisi ko'rinishida ya'ni $n = p + m^k$ korinishda ifodalash".

b).Xya-Lo-Ken masalasi "Har qanday natural n sonini tub son p va tub sonning darajasi p^k yig'indisi ko'rinishida ya'ni $n = p + p^k$ korinishda ifodalash".

c). Goldbaxning binar masalasi va bularning turli umumlashmalari ([22] ga qarang).

Xardi – Littlvud–Ramanudjan doiraviy metodi nuqtai nazaridan dastavval bir xil sxemada qaraladi. Bunda n ni ko'rsatilgan ko'rinishda ifodalashlar sonini ifodalovchi $\mathcal{R}\,(n)-$ funksiya [0;1] oraliq boyicha olingan integral ko'rinishida ifodalab olinadi va L.Dirixlening approksimatsiya (haqiqiy sonlarni ratsional sonlar bilan almashtirish haqidagi) teoremasidan foydalanib bu integral ikkita integral yig'indisi

$$\mathcal{R}\,(n) = \mathcal{R}_1\,(n) + \mathcal{R}_2\,(n) \qquad (3.1)$$

ko'rinishida ifodalab olinadi. Bunda $\mathcal{R}_1\,(n)$ ga odatda katta yoylar bo'yicha, $\mathcal{R}_2\,(n)$ esa kichik yoylar bo'yicha olingan integral deyiladi.

Agar biz biror usul bilan qaralayotgan n ychun $\mathcal{R}\,(n) > 0$ ekanligini ko'rsatsak, u holda shu n uchun biz o'rganayotgan masala yechimga ega bo'ladi.

Odatda (3.1) dagi $\mathcal{R}_1\,(n)$ integral taxmin qilinayotgan asimptotik formula (yoki isbotlanayotgan bahoning) ning bosh hadini, $\mathcal{R}_2\,(n)$ esa qoldiq hadini beradi. $\mathcal{R}_2\,(n)$ irtegral I.M.Vinogradovning trigonometrik yig'indilar metodi bilan baholalanadi va hozirgi vaqtda trigonometrik yig'indilarning moduli uchun yetarlicha aniq baholari mavjud bo'lgani uchun uni baholshda katta muammolar kelib chiqmaydi. (3.1) dan

$$\mathcal{R}\,(n) \geq \mathcal{R}_1\,(n) - |\mathcal{R}_2\,(n)|$$

bo'lgani uchun $\mathcal{R}\,(n) > 0$ ekanligini ko'rsatish uchun

$$\mathcal{R}_1\,(n) > |\mathcal{R}_2\,(n)| \qquad (3.2)$$

tengsizlikning bajarilishini ko'psatishimiz kerak bo'ladi. Ana shunda qiyinchiliklarga duch kelinadi. $(1, X)$ oraliqdagi $(3.2) -$ tengsizlik o'rinli ekanligini ko'rsata olmagan n larni masalaning maxsus to'plami $M(X)$ ga kiritamiz. Shu maxsus to'plamdagi elementlar sonini $E(X)$ bilan belgilaymiz, ya'ni $E(X) = card\ M(X)$ va uni yuqoridan baholaymiz. Shunday qilib biz 2-paragrafda ko'p qo'llagan $\mathcal{R}\,(n) > f(n)(> 0)$ baho $(1, X)$ oraliqdagi n ning ko'pi bilan $E(X)$ ta qiymatidan boshqa barcha qiymatlari uchun o'rinli deganimiz bu qolgan n lar uchun masala yechimga ega emas degani emas, balki qolgan n lar uchun $\mathcal{R}\,(n) < f(n)$ bajariladi deb tushunilishi kerak.

Bu yerda shuni ham ta'kidlash kerakki, yuqorida eslatib o'tilgan barcha additiv masalalarda

$$E(X) \ll \frac{X}{ln^A x}$$

bo'lganda $\mathcal{R}\,(n)$ uchun turli mualliflar tomonidan asimptotik formulalar olingan, lekin

$$E(X) < Xexp\left(-c\sqrt{lnX}\right) \text{ va } E(X) < X^{0.96}$$

bo'lgan hollarda esa I. Allakov [20,22], V.I.Plaksin [23] va boshqalar tomonidan $\mathcal{R}\,(n)$ uchun quyidan baho olingan. Bu yerda asosiy qiyinchilik masalaning yechimining Dirixle $L-$ funksiyaning no'llari haqidagi URG ga bog'liq ekanligi va URG ning hozirgacha hal etilmaganidadir.

II-BOB. DIRIXLE L-FUKSIYASINING NO’LLARI HAQIDA

II.1- §. L-funksiyaning logarifmik hosilasini no’llari bo’yicha qatorga yoyish.

Bizga ma’lumki ([25], 12-§)

$$\xi(s,\chi)=\left(\frac{q}{\pi}\right)^{\frac{1}{2}s+\frac{1}{2}a}\Gamma\left(\frac{1}{2}s+\frac{1}{2}a\right)L(s,\chi)$$

tenglik bilan aniqlanuvchi $\xi(s,\chi)-$ funksiya uchun

$$\xi(s,\chi)=e^{A+Bs}\prod_{\rho}\left(1-\frac{s}{\rho}\right)e^{\frac{s}{\rho}} \qquad (1.1)$$

no’llar bo’yicha yoyilma orinli. Bunda $\Gamma(s)-$ Eylerning gamma funksiyasi, $a=0$ agar $\chi(n)$ haqiqiy xarakter bo’lib $\chi(-1)=1$ bo’lsa va $a=1$ agar $\chi(-1)=-1$ bo’lsa; $\rho=\beta+i\gamma$ bilan $L(s,\chi)$ning no’llari belgilangan. A,B lar χ bog’liq bo’lgan parametrlar. (1.1) ni logarifmlab keyin hosilasini olsak quyidagiga ega bo’lamiz:

$$\frac{L'}{L}(s,\chi)=-\frac{1}{2}ln\frac{q}{\pi}+B(\chi)+\sum_{\rho}\left(\frac{1}{s-\rho}+\frac{1}{\rho}\right)+\frac{\gamma_0}{2}-$$

$$-\frac{1}{s+a}+\sum_{n=1}^{\infty}\left(\frac{1}{s+a+2n}-\frac{1}{2n}\right) \qquad (1.2)$$

Bu yoyilmadam foydalanib keyinchalik kerak bo’ladigan quyidagi lemmani isbotlaymiz.

1.1-lemma. Agar $-1\le\sigma\le 2,\ s=2+it, 2\le|t|\le T$ bo’lsa, quyidagi tenglik o’rinli:

$$\frac{L'}{L}(s,\chi) = \sum_{|t-\gamma|\le 1} \frac{1}{s-\rho} + c_1\theta_1 lnqT, \quad |\theta_1| < 1, \tag{1.3}$$

bunda $\chi\ (modq)$ $-$primitiv xarakter va yig'indi L funksiya $L(s,\chi)$ ning $|t-\gamma| \le 1$ shartni qanoatlantiruvchi no'llari ρ bo'yicha olinadi;

$$c_1 = 10\left\{1 + \left(\gamma_0 + \frac{1}{2T_0} + \frac{1}{12T_0^2} + \frac{1}{2}\sqrt{1+9T^{-2}}\right)\mathcal{L}_0^{-1}\right\} + 3{,}5629 l_0^{-1},$$

$$\mathcal{L} = lnT, \qquad l = lnqT, \ \ T \ge T_0 \ge 2, \quad q \ge q_0 \ge 3, \qquad \mathcal{L} \ge \mathcal{L}_0, \ \ l \ge l_0 \,.$$

Isboti. Bu lemmaning turli isbotlari bor, masalan [19] ning 111-betiga qarang. $c_1$ning qiymatini aniqlash maqsadida biz isbotni takroran qarab chiqamiz. (1.2) dan $s = 2 + it$ bo'lgandagi xuddi shunday munosabatni ayirib quyidagini hosil qilamiz:

$$\left|\frac{L'}{L}(s,\chi)\right| \le \left|\sum_{\rho}\left(\frac{1}{s-\rho} - \frac{1}{2+it-\rho}\right)\right| + \left|\frac{1}{s+a} - \frac{1}{2+iT+a}\right| + \left|\frac{L'}{L}(2+iT,\chi)\right|$$
$$+ \sum_{n=1}^{\infty}\left|\frac{1}{s+a+2n} - \frac{1}{2+iT+2n}\right|. \tag{1.4}$$

Bu yerda

$$\left|\frac{L'}{L}(2+iT,\chi)\right| \le \sum_{n=1}^{\infty}\frac{\Lambda(n)}{n^2} = \sum_{n=1}^{41}\frac{\Lambda(n)}{n^2} + \sum_{n=43}^{\infty}\frac{\Lambda(n)}{n^2}$$
$$< 0.53088 + \int_{42}^{\infty}\frac{lnx}{x^2} = 0{,}64585; \tag{1.5}$$

$$\left|\frac{1}{s+a} - \frac{1}{2+iT+a}\right| = \frac{2-\sigma}{\sqrt{(\sigma+a)^2+t^2}\sqrt{(2+a)^2+t^2}} \le \frac{3}{2\sqrt{10}}; \tag{1.6}$$

agar $|t-\gamma|>1,\ 0<\beta<1, -1\leq\sigma\leq 2$ bo'lsa, u holda

$$\left|\frac{1}{s-\rho}-\frac{1}{2+it-\rho}\right|=\frac{2-\sigma}{\sqrt{(\sigma-\beta)^2+(t-\gamma)^2}\sqrt{(2-\beta)^2+(t-\gamma)^2}}$$
$$<\frac{3}{(t-\gamma)^2}; \tag{1.7}$$

$$\left|\sum_{|t-\gamma|\leq 1}\frac{1}{2+it-\rho}\right|\leq\sum_{|t-\gamma|\leq 1}\frac{1}{\sqrt{(2-\beta)^2+(t-\gamma)^2}}\leq\sum_{|t-\gamma|\leq 1}\frac{1}{2-\beta}\leq\sum_{|t-\gamma|\leq 1}1;$$

$$\sum_{n=1}^{\infty}\left|\frac{1}{s+a+2n}-\frac{1}{2+iT+2n}\right|\leq(2-\sigma)\sum_{n=1}^{\infty}\frac{((\sigma+a+2n)^2+\mathrm{t}^2)^{-\frac{1}{2}}}{((2+a+2n)^2+\mathrm{t}^2)^{\frac{1}{2}}}<$$
$$(2-\sigma)\frac{1}{4}\zeta(2)\leq\frac{\pi^2}{8} \tag{1.8}$$

ekanligini inobatga olib (1.4) dan

$$\left|\frac{L'}{L}(s,\chi)\right|\leq\left|\sum_{|t-\gamma|\leq 1}\frac{1}{s-\rho}\right|+\sum_{|t-\gamma|\leq 1}1+3\sum_{|t-\gamma|>1}\frac{1}{(t-\gamma)^2}+\ c_2, \tag{1.9}$$

bu yerda

$$c_2=0{,}65585+\frac{3}{2\sqrt{10}}+\frac{\pi^2}{8}.$$

Endi $|t|\leq T$ bo'lganda

$$\sum_{|t-\gamma|>1}\frac{1}{(t-\gamma)^2}\leq c_3\, l \tag{1.10}$$

bajarilishini ko'rsatamiz. Bu

$$\sum_{\gamma}\frac{1}{4+(t-\gamma)^2}\le c_4\, l \qquad (1.11)$$

bahodan kelib chiqadi. Haqiqatan ham (1.11) dan

$$\sum_{|t-\gamma|>1}\frac{1}{4+(t-\gamma)^2}\le c_4\, l.$$

Bundan

$$\sum_{|t-\gamma|>1}\frac{1}{4+(t-\gamma)^2}\ge\sum_{|t-\gamma|>1}\frac{1}{5(t-\gamma)^2}$$

ekanligini e'tiborga olib va $c_3=5c_4$ deb olib (1.10) ni hosil qilamiz. Endi (1.11) ni isbotlaymiz. (1.11) formulada $s=2+it$ deb olib va (1.12), (1.13) va (2.5) ga asosan

$$Re\sum_{\rho}\frac{1}{s-\rho}<\frac{1}{2}ln\frac{q}{\pi}-\frac{\gamma_0}{2}+Re\frac{1}{s+a}+0.64585+c_5\mathcal{L},$$

bunda

$$c_5=\frac{1}{2}\left\{1+\left(\gamma_0+\frac{1}{2T_0}+\frac{1}{12T_0^2}+\frac{1}{2}\sqrt{1+9T_0^{-2}}\right)\mathcal{L}_0^{-1}\right\},\qquad T\ge T_0.$$

Endi

$$Re\frac{1}{s+a}=\frac{2+a}{(2+a)^2+t^2}\le\frac{1}{4},$$

bo'lgani uchun

$$Re\sum_{\rho}\frac{1}{s-\rho}<(c_5+0{,}0348767\ l_0^{-2})lnqT$$

bo'ladi. Bundan tashqari

$$Re\sum_{\rho}\frac{1}{s-\rho}=Re\frac{1}{(2-\beta)+i(t-\gamma)}=\frac{2-\beta}{(2-\beta)^2+(t-\gamma)^2}\geq\frac{1}{4+(t-\gamma)^2}.$$

Demak,

$$\sum_{\gamma}\frac{1}{4+(t-\gamma)^2}\leq c_4\, l,$$

bunda

$$c_4=c_5+0{,}0348767\, l_0^{-2}=\frac{1}{2}\left\{1+\left(\gamma_0+\frac{1}{2T_0}+\frac{1}{12T_0^2}+\frac{1}{2}\sqrt{1+9T_0^{-2}}\right)\mathcal{L}_0^{-1}\right\}$$
$$+0{,}0348767\, l_0^{-2}.$$

Shuningdek (2.11) dan L funksiya $L(s,\chi)$ ning $|t-\gamma|\leq 1$ shartni qanoatlantiruvchi no'llari soni $c_3 l$ dan ko'p emas, ya'ni

$$\sum_{|t-\gamma|\leq 1} 1\leq c_3 l \qquad (2.12)$$

bajariladi. Endi hosil qilingan baholarni (2.9) ga qo'yib lemmadagi tasdiqqa ega bo'lamiz.

1-natija. Agar $\frac{1}{2}\leq\sigma\leq\frac{5}{2},\ s=\sigma+it,\ 2\leq|t|\leq T$ va $\chi\ (modq)-$ primitiv xarakter bo'lsa, u holda

$$\frac{L'}{L}(s,\chi)=\sum_{|t-\gamma|\leq 1}\frac{1}{s-\rho}+c_6\theta_2 lnqT$$

tenglik o'rinli. Bunda $|\theta_2|<1$ va

$$c_6=\frac{58}{9}\left\{1+\left(\gamma_0+\frac{1}{2T_0}+\frac{1}{12T_0^2}+\frac{1}{2}\sqrt{1+12{,}25T_0^{-2}}\right)\mathcal{L}_0^{-1}\right\}+1{,}9259\ l_0^{-2}.$$

2-natija. Agar $\frac{1}{2} \le \sigma \le \frac{5}{2},\ s = \sigma + it,\ 2 \le |t| \le T$ va $\chi\ (modq) -$ primitiv xarakter bo'lsa, u holda

$$\sum_{|t-\gamma|\le 1} 1 \le c_7 lnqT,$$

bu yerda

$$c_7 = \frac{29}{12}\left\{1 + \left(\gamma_0 + \frac{1}{2T_0} + \frac{1}{12T_0^2} + \frac{1}{2}\sqrt{1 + 12{,}25T_0^{-2}}\right)\mathcal{L}_0^{-1}\right\} + 0{,}0698\ l_0^{-2}.$$

Ikkala natija ham 2.1-lemmadan kelib chiqadi, agar uning isbotida $\frac{1}{2} \le \sigma \le \frac{5}{2}$ ekanligini e'tiborga olsak. Bu yerda [24] dagi natijadan foydalandik.

II.2- §. $N(T,\chi)$ funksiya uchun formulaning qoldiq hadiga kiruvchi o'zgarmaslarning qiymatini aniqlash.

Faraz etaylik $\chi(\mathrm{mod}q) -$Dirixle xarakteri bo'lsin. Ma'lumki, $L(s,\chi) -$ funksiya bilan bog'liq turli masalalarni yechishda ko'pincha $N(T,\chi)$va $\psi(x,\chi)$ funksiyalar uchun aniq formulalardan foydalaniladi ([25], 16-19§). Shuning uchun ham ko'pgina nazariy sonli o'zgarmaslarning qiymatlarini aniqlashda yuqorida eslatib o'tilgan formulalarda ishtiroq etuvchi o'zgarmaslarning qiymatlarini bilish talab etiladi. Xususan ular Montgomeri va Vo'nning teoremasidagi δ va $X_0(\delta)$ larning qiymatlarini aniqlash uchun kerak.

Ushbu paragrafda biz ana shularga doir quyidagi ikkita teoremani isbotlaymiz.

2.1-teorema. $T \ge T_0$ bo'lganda quyidagi formulalar o'rinli:

a) agar $q \ge 3$ bo'lib $\chi(modq) -$ primitiv xarakter bo'lsa, u holda

$$N(T,\chi) = \frac{T}{\pi} ln\frac{qT}{2\pi} - \frac{T}{\pi} + 33{,}3396\theta_1 logqT;$$

b) agar $q \ge 3$ bo'lib $\chi = \chi_0^* - 1$ moduli bo'yicha bosh xarakter bo'lsa, u holda

$$N(T,\chi_0^*) = \frac{T}{\pi} ln\frac{qT}{2\pi} - \frac{T}{\pi} + 32{,}2266\theta_2 logT;$$

c) agar $q \geq 3$ bo'lib $\chi(modq) -$ ixtiyoriy xarakter bo'lsa, u holda

$$N(T,\chi) = \frac{T}{\pi} ln\frac{qT}{2\pi} - \frac{T}{\pi} + 22{,}4621\theta_3 Tlogq$$

tenglik bajarildai. Bunda $|\theta_i| \leq 1,\ i = 1,2,3.$

2.1-teoremani isbotlash uchun bizga quyidagi lemma kerak bo;ladi.

2.1-lemma. Agar $-\pi < args < \pi$ bo'lsa quyidagi formula o'rinli:

$$ln\Gamma(s) = \left(s - \frac{1}{2}\right) lns - s + \frac{1}{2} ln2\pi + r\left(\frac{1}{s}\right),$$

bunda

$$\left|r\left(\frac{1}{s}\right)\right| \leq \frac{1}{12|s|}\left(1 + \frac{1}{30|s|^2} + \frac{1}{105|s|^4}\right).$$

Isboti. $|args| < \pi$ bo'lganda [26] dagi (6.1.42) formulaga asosan

$$r\left(\frac{1}{s}\right) = ln\Gamma(s) - \left(s - \frac{1}{2}\right) lns + s - \frac{1}{2} ln2\pi = R\left(\frac{1}{s}\right) + \sum_{m=1}^{n} \frac{B_{2m}}{2m(2m-1)s^{2m-1}},$$

bunda $B_{2m} - 2m$-Bernulli soni va

$$\left|R\left(\frac{1}{s}\right)\right| \leq \frac{|B_{2n+2}|\, K(s)}{(2n+1)(2n+2)|s|^{2n+1}},$$

$K(s)$ bilan $u \geq 0$ bo'lganda

$$\left|\frac{s^2}{u^2+s^2}\right|$$

ning yuqori chegarasi belgilangan. $K(s) \leq 1$ bo'lanligi sababli oxirgi tenglikda $n = 2$ deb olsak undan lemmadagi tasdiq kelib chiqadi.

1-natija. b o'zgarmas son ($|b| < |s|$) bo'lib $|args| < \pi$ bo'lsa, u holda quyidagi tenglik o'rinli:

$$ln\Gamma(s+b) = \left(s+b-\frac{1}{2}\right)lns - s + \frac{1}{2}ln2\pi + r_1\left(\frac{1}{s}\right),$$

bunda

$$\left|r_1\left(\frac{1}{s}\right)\right| \leq \frac{|3b^2-b|}{2(|s|-|b|)} + \left|r\left(\frac{1}{s+b}\right)\right|.$$

2-natija. Agar $|args| \leq \pi - \delta,\ (\delta > 0)$ bo'lsa, u holda quyidagi tenglik o'rinli:

$$\frac{\Gamma'}{\Gamma}(s) = lns - \frac{1}{2s} + r_\delta\left(\frac{1}{s}\right),$$

bunda

$$\left|r_\delta\left(\frac{1}{s}\right)\right| \leq \frac{\delta}{2|s|sin\delta} < \frac{\pi}{4|s|}.$$

Isboti. Ma'lumki, $ln\Gamma(s)$ uchun quyidagi munosabat o'rinli ([19] ning 28-beti):

$$ln\Gamma(s) = \left(s-\frac{1}{2}\right)lns - s + \frac{1}{2}ln2\pi + \int_0^\infty \frac{[u]-u+\frac{1}{2}}{u+s}\,du. \qquad (2.1)$$

Bundan

$$\left|\frac{\Gamma'}{\Gamma}(s) - lns + \frac{1}{2s}\right| = \left|\int_0^\infty \frac{[u] - u + \frac{1}{2}}{(u+s)^2} du\right| \le \frac{1}{2}\int_0^\infty \frac{du}{u^2 + |s|^2 - 2u|s|cos\delta} =$$

$$\frac{\delta}{2|s|sin\delta} < \frac{\pi}{4|s|}.$$

Biz bu (2.1) da integral ostida differensiallash qoidasidan foydalandik.

2.1-teoremaning isboti. Faraz etaylik $\chi(modq)$ primitiv xarakter va

$$\xi(s,\chi) = \left(\frac{q}{\pi}\right)^{\frac{1}{2}s+\frac{1}{2}a} \Gamma\left(\frac{1}{2}s + \frac{1}{2}a\right) L(s,\chi) \qquad (2.2)$$

bo’lsin. s uchlari $\frac{5}{2} \pm iT, -\frac{3}{2} \pm iT$ nuqtalarda bo’lgan to’g’ri to’rtburchakning tomonlari boyicha harakatlanganda $arg\xi(s,\chi)$ nind orttirmasini qaraymiz. Bu to’g’ri to’rtburchakga $L(s,\chi)$ ning faqat birta $s = 0$ yoki $s = 1$ bo’lgandagi trivial no’li tegishli va shuning uchun ham

$$2\pi(N(T,\chi) + 1) = \Delta_R arg\xi(s,\chi)$$

bajariladi. $\xi(s,\chi)$ning funksional tenglamasi [25]

$$\xi(1-s,\bar{\chi}) = \frac{i^a q^{\frac{1}{2}}}{\tau(\chi)}\xi(s,\chi)$$

dan $arg\xi(\sigma + it,\chi) = arg\overline{\xi(1 - \sigma - \imath t,\chi)} + c$, bunda

$$\tau(\chi) = \sum_{h=1}^{q} \chi(h) e\left(\frac{h}{q}\right)$$

Gauss yig'indisi va c soni s ga bog'liq emas, shuning uchun ham kontyrning chap tomoni bo'yicha harakatlangandagi argument orttirmasi uning o'ng tomoni bo'yicha harakatlangandagi argumenr orttirmasiga teng.

Shunday qilib

$$2\pi(N(T,\chi)+1)=\Delta_R arg\xi(s,\chi)=2\left(\Delta_{R_1} arg\xi(s,\chi)\right), \tag{2.3}$$

bu yerda Δ_{R_1}bilan s R ning o' ng yarmida o'zgargandagi $arg\xi(s,\chi)$ning orttirmasi belgilangan. Endu 1-natijadan foydalanib $\Delta_{R_1} arg\xi(s,\chi)$ ni hisoblaymiz:

$$\Delta_{R_1}\arg\left(\frac{q}{\pi}\right)^{\frac{1}{2}s+\frac{1}{2}a}=\Delta_{R_1}\left(\frac{t}{2}ln\frac{q}{\pi}\right)=Tln\frac{q}{\pi};$$

$$\begin{aligned}\Delta_{R_1}\arg\Gamma\left(\frac{1}{2}s+\frac{1}{2}a\right)&=\Delta_{R_1}\operatorname{Im}\log\Gamma\left(\frac{1}{2}s+\frac{1}{2}a\right)\\&=2\left\{\operatorname{Im}\log\Gamma\left(\frac{1}{2}\left(\frac{1}{2}+a+iT\right)\right)-\operatorname{Im}\log\Gamma\left(\frac{1}{2}\left(\frac{5}{2}+a\right)\right)\right\}\\&=2Im\left\{\left(-\frac{1}{4}+\frac{a}{2}+\frac{1}{2}iT\right)\ln\left(\frac{1}{2}iT\right)-\frac{1}{2}iT+\frac{1}{2}ln2\pi+r_1\left(\frac{1}{s}\right)\right\}\\&=Tln\frac{T}{2}-T+(2a-1)\frac{\pi}{4}+2\theta_4\left|r_1\left(\frac{1}{s}\right)\right|,\qquad|\theta_4|\le 1.\end{aligned}$$

1-natijadan $T\ge T_0$ bo'lganda

$$2\left|r_1\left(\frac{1}{s}\right)\right|<2\left\{\frac{15}{16(1-1{,}5T_0^{-1})}+\frac{1}{6}\left(1+\frac{2}{15T_0^2}+\frac{16}{105T_0^4}\right)\right\}\frac{1}{T}=c_8\frac{1}{T},$$

bunda

$$c_8=2\left\{\frac{15}{16(1-1{,}5T_0^{-1})}+\frac{1}{6}\left(1+\frac{2}{15T_0^2}+\frac{16}{105T_0^4}\right)\right\}.$$

Endi $L(s,\chi)$ ning argumentini qaraymiz.

$$\pi S(\chi, T) = \Delta_{R_1} arg\, L(s, \chi)$$

deb belgilab olamiz. Bu tenglikning o'ng tomonini quyidagicha yozish mumkin:

$$\Delta_{R_1} arg\, L(s, \chi) = 2 \int_{\frac{5}{2}}^{\frac{5}{2}+iT} Im\left\{\frac{L'}{L}(s, \chi)\right\} ds - 2 \int_{\frac{1}{2}+iT}^{\frac{5}{2}+iT} Im\left\{\frac{L'}{L}(s, \chi)\right\} ds.$$

Birinchi integralni quyidagicha baholash mumkin:

$$\left|2 \int_0^T Im \sum_{n=1}^{\infty} \frac{\chi(n)\Lambda(n)}{n^{\frac{5}{2}+it}} dt\right| \leq 4\zeta\left(\frac{5}{2}\right) = 5{,}364.$$

Ikkinchi integralni baholash uchun 2.1-lemmaning natijalaridan foydalanamiz. Bu yerda

$$\left|\int_{\frac{1}{2}+iT}^{\frac{5}{2}+iT} Im\,(s-\rho)^{-1} ds\right| = |\Delta \arg(s-\rho)| \leq \pi$$

bo'lgani uchun 2.1-lemmaning 1va 2-natijalaridan $q \geq q_0$, $T \geq T_0$ bo'lganda quyidagiga ega bo'lamiz:

$$\pi S(\chi, T) \leq c_9 l,$$

bunda $c_9 = 4c_6 + 2\pi c_7 + 5{,}364 l_0^{-1}$. Shunday qilib (2.3)-tenglikdan quyidagi tenglikni hosil qilamiz:

$$N(T, \chi) = \frac{T}{\pi} ln \frac{qT}{2\pi} - \frac{T}{\pi} + \theta_1 c_{10} l,$$

bu yerda

$$c_{10} = \frac{1}{\pi}(\, c_9 + \, c_8(T_0 l_0)^{-1})$$

$$= 13{,}0385\left\{1 + \left(\gamma_0 + \frac{1}{2T_0} + \frac{1}{12T_0^2} + \frac{1}{2}\sqrt{1 + 12{,}25T_0^{-2}}\right) \mathcal{L}_0^{-1}\right\}$$

$$+\left(4{,}4969+\frac{0{,}5968}{(1-1{,}5T_0^{-1})}+\frac{0{,}1061}{T_0}+\frac{0{,}0142}{T_0^3}+\frac{0{,}01617}{T_0^5}\right)\frac{1}{l_{0.}}. \qquad (2.4)$$

Endi faraz etaylik $\chi=\chi_0^*-1$ moduli bo'yicha bosh xarakter bo'lsin u holda $L(s,\chi_0^*)=\zeta(s)$ va biz $\xi(s,\chi)$ ning o'rniga ([25], 15-§)

$$\xi(s)=s(s-1)\pi^{-\frac{1}{2}s}\,\Gamma\left(\frac{1}{2}s+1\right)\zeta(s)$$

funksiyani qaraymiz. Bu holda ham yuqoridagi sungari mulohazani takrorlab quyidagi formulaga ega bo'lamiz:

$$N(T,\chi_0^*)=\frac{T}{\pi}ln\frac{T}{2\pi}-\frac{T}{\pi}+\theta_2c_{11}\mathcal{L}, \qquad (2.5)$$

bu yerda

$$c_{11}=5{,}4843\left\{1+\left(\gamma_0+\frac{1}{2T_0}+\frac{1}{12T_0^2}+\frac{1}{2}\sqrt{1+4T_0^{-2}}\right)\mathcal{L}_0^{-1}\right\}$$

$$+\left(21{,}7472+\frac{0{,}3786}{T_0}+\frac{0{,}7162}{T_0^2}+\frac{0{,}0091}{T_0^3}+\frac{0{,}0103}{T_0^5}\right)\frac{1}{\mathcal{L}_0}.$$

Nihoyat χ primitiv bo'lmagan xarakter bo'lib $\chi_1(modq_1)$ primitiv xarakter bilan indutsirlangan bo'lsin. U holda

$$L(s,\chi)=L(s,\chi_1)\prod_{p\backslash q,p\nmid q_1}\left(1-\frac{\chi_1(p)}{p^s}\right)$$

formulaga asosan $L(s,\chi)$ funksiyaning $L(s,\chi_1)$ ning no'llaridan farqli no'llari $1-\chi_1(p)p^{-s}$ ko'paytuvchining chekli sondagi no'llaridan iborat bo'lib $1-\chi_1(p)p^{-s}=0$ bajarilishi kerak. Bu esa q/p va $q_1\nmid p$ bo'lgandagina, ya'ni

$$s=\frac{ln\chi_1(p)}{lnp}=i\frac{arg\chi_1(p)+2\pi n}{lnp}, \qquad (n-\text{butun son}).$$

$|t| \leq T$ sohadagi bunday nuqtalar soni

$$\frac{1}{2\pi}\sum_{\frac{q}{p},q_1\nmid p}(Tlnp+1) \leq \frac{1}{2\pi}\left(1+\frac{1}{T_0 ln2}\right)Tlnq$$

ga teng. Shuning uchun ham bu holda

$$N(T,\chi) = \frac{T}{\pi}ln\frac{T}{2\pi} - \frac{T}{\pi} + \theta_6\frac{1}{2\pi}\left(1+\frac{1}{T_0 ln2}\right)Tlnq + c_{10}\theta_1 l$$

yoki agar $T \geq T_0(\geq e), q \geq q_0$ bo'lsa, u holda

$$N(T,\chi) = \frac{T}{\pi}ln\frac{T}{2\pi} - \frac{T}{\pi} + \theta_3 c_{12}Tlnq$$

kelib chiqadi. Bunda

$$c_{12} = \frac{1}{2\pi}\left(1+\frac{1}{T_0 ln2}\right) + \frac{c_{10}}{T_0} + \frac{c_{10}}{lnq_0}\underbrace{max}_{T\geq T_0}\frac{lnT}{T}. \qquad (2.6)$$

(2.4)-(2.6) larda $q_0 = 3,\quad T_0 = 3$ deb olib 2.1-teoremaning tasdig'iga ega bo'lamiz.

3-natija. Agar $N(T)$ Rimanning dzeta-funktsiyasi $\zeta(s), (s = \sigma + it)$ ning $0 < \sigma < 1,\ |t| \leq T$ to'g'ri to'rtburchakdagi trivial bo'lmagan no'llarining soni bo'lsa, u holda

$$N(T) = \frac{T}{2\pi}ln\frac{T}{2\pi} - \frac{T}{2\pi} + +6{,}512850\theta\ lnT$$

формула o'rinli.

Bu natija ilgari $N(T)$ bilan bog'liq mavjud natijalarning aniqlashtirilgani hisoblanadi.

Isboti. Avvalo

$$N(T)=\frac{T}{2\pi}ln\frac{T}{2\pi}-\frac{T}{2\pi}+\theta c_1\,lnT \qquad (2.7)$$

,

ning bajarilishini ko'rsatamiz. Bunda

$$T\geq T_0\geq 3, |\theta|<1\;va\;\;2c_1$$

$$=5{,}4843\left\{1+\gamma_0+\frac{1}{2T_0}+\frac{1}{12T_0^2}+\frac{1}{2lnT_0}\sqrt{1+4T_0^{-2}}\right\}+$$

$$\left(21{,}7472+0{,}3786\mathrm{T}_0^{-1}+0{,}7162\mathrm{T}_0^{-2}+0{,}0091\mathrm{T}_0^{-3}+0{,}0103\mathrm{T}_0^{-5}\right)\frac{1}{lnT_0}.$$

$0<\sigma<1,\;|t|<14{,}135$ sohada $\zeta(s)$ (см.[31]) ning no'llari mavjud bo'lmagani uchun, $T_0\geq 14{,}135$ deb olishimiz mumkin.U holda (2.7) dan

$$N(T)=\frac{T}{2\pi}ln\frac{T}{2\pi}-\frac{T}{2\pi}+6{,}512850\theta\,lnT$$

ga ega bo'lamiz. Taqqoslash uchun yuqorida isbotlangan 2.1-teoremadan

$$N(T)=\frac{T}{2\pi}ln\frac{T}{2\pi}-\frac{T}{2\pi}+32{,}22660\theta\,lnT$$

to'g'ridan-to'g'ri kelib chiqadi. Agar biz yuqoridagi teoremaning isbotida $\chi=\chi_0^*$ va $T_0\geq 14{,}135$ deb olsak (2.7)-formulaga ega bo'lamiz.

II.3-§. $\psi(x,\chi)$ funksiya uchun aniqlashtirilgan formula.

3.1-teorema. Agar $\chi(modq)-$ ixtiyoriy xarakter va $3\leq T\leq x$ bo'lsa, u holda

$$\psi(x,\chi)=\delta_\chi x-E_{\tilde{\beta}}\frac{x^{\tilde{\beta}}}{\tilde{\beta}}-\sum\nolimits'_{|\gamma|<T}\frac{x^\rho}{\rho}+R(x,T), \qquad (3.1)$$

tenglik o'rinli. Bu yerda

$$\delta_\chi = \begin{cases} 1, & \text{agar } \chi = \chi_0 - \text{bosh xarakter bo'lsa;} \\ 0, & agar\ \chi = \chi_0 \ \ \text{bo'lsa} \end{cases};$$

